



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 17-yanvar, shanba,
4 (24.184)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yurt
qo'ri, eling
o'sar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

ARMIIYAMIZ — ONA-YURT QALQONI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni viloyatimizda keng nishonlandi.

Dastlab viloyat hokimi va Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi, huquq-tartibot idoralari rahbarlari va faollar Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi, sohibqiron bobomiz haykali poyiga gullar qo'yildi.

Shundan so'ng tadbir qatnashchilari viloyat mudofaa ishlari boshqarmasida bo'lib, bu yerda amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi. O'tgan yil mahalliy budjetdan 5 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilib, chaqiriluvchilarning jismoniy va intellektual qobiliyatini aniqlash, tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun qulay sharoit yaratildi, 210 o'rinli oshxona qurildi. Hammom va yotoqxonada ta'mirlash ishlari bajarildi.

Viloyat hokimi va faollar Milliy gvardiya viloyat boshqarmasida tashkil etilgan xotira yodgorlik majmuasi ochilishida qatnashdi va Vatanimiz tinchligi, xalqimiz osuda hayoti uchun jon fido qilgan xizmatchilar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shu yerda Milliy gvardiya harbiy bo'linmalari saf ko'rigi va ularning ko'rgazmali jangovar chiqishlari namoyish etildi. Zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar ko'rgazmasida bu vositalarning texnik imkoniyatlari haqida ma'lumot berildi.

Bayram munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosim avvalida viloyat hokimi A. Boboyev so'zga chiqib, o'z hayotini ona Vatanimiz himoyasiga bag'ishlagan harbiy xizmatchilar va soha faxriylari, ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikkladi. Bugun dunyoda yuzaga kelgan vaziyatda Vatanimiz mustaqilligi va suvereniteti, hududiy yaxlitligini ta'minlashga qodir Qurolli Kuchlar shakllantirilgani va uning jangovor shayligi va salohiyatini oshirish borasidagi ishlari izchil davom etayotganini ta'kidladi.

Marosimda bir guruh harbiy xizmatchilar, huquq-tartibot idoralari xodimlari viloyat hokimligining faxriy yorliq va tashakkurnom-alari, qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

B. MUSTANOV.

MUKOFOT MUBORAK!


Prezidentimizning 2026-yil 13-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, Past Darg'om tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori **Sultonov Asliddin Muxtorovich "Shuhrat"** medali bilan taqdirlandi.



19-yanvar —
Mahmudxo'ja Behbudiy
tavallud topgan kun

**"BEHBUDIY"
dramasi**

Ushbu spektakli 2025-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan viloyat musiqa va drama teatrida sahnalashtirilgan.



IROQ

endi yiroq emas

Mamlakatimizga tashrif buyurgan Iroq tadbirkorlaridan iborat delegatsiya a'zolari Samarqandda bo'ldi. Dastlab viloyat hokimligida viloyat hokimi Adiz Boboyev Iroq Iqtisodiy kengashi raisi Ibrohim Madlul Uvayd Ma'sudiy, Savdo palatasi boshqaruv kengashi raisi Amir Xalaf Alaviy, shuningdek, Milliy investitsiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Salar Muhammad Amin boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda tomonlar sanoat ishlab chiqarishi, oziq-ovqat va farmasevtika sohalari, qishloq xo'jaligi, energetika hamda turizm yo'nalishlarida hamkorlikni

lalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash kerakki, 40 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan Iroq davlati bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi mamlakatimiz tadbirkorlari uchun yangi bozor, yangi imkoniyat bo'lishi mumkin. Chunki Iroqda tayyor oziq-ovqat, farmasevtika, qurilish mahsulotlariga talab yuqori. Shu bois Iroq bozoriga kirib borish viloyatimiz eksport salohiyatini oshiradi va yangi imkoniyatlarni ochadi.

Tashrif doirasida tashkil qilingan biznes forumda ikki davlatning tadbirkorlari, soha rahbarlari va yirik kompaniyalar ishtirok etdi.

Bugun Samarqanddagi yetakchi sanoat korxonalari bilan tanishdik, ishlab chiqaruvchilar bilan uchrashdik, - deydi Iroq Iqtisodiy kengashi raisi Ibrohim Madlul Uvayd Ma'sudiy. — Biz o'zbek tadbirkorlari bilan uzoq yillik hamkorlik o'rnatishni rejalashtirganimiz. Iroq bozorida qurilish, qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat

ko'rsatish, farmasevtika, suv tejamlor texnologiyalaridan energetika, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga talab yuqori. O'tgan yili "Bog'dod-2025" xalqaro ko'rgazmasida 200 dan ortiq o'zbek korxonalari ishtirok etdi, yil davomida 55 milliard dollar xalqaro sarmoya jalb etdik. O'yaymanki, Iroqni qayta tiklashda o'zbek tadbirkorlari bilan uzoq yillik kelishuvlarga erishamiz, buning uchun ularga soliq, investitsiyaviy imtiyozlar beriladi, barcha sharoitlarni yaratishga tayyormiz.

Tadbirkorlarning B2B formatidagi uchrashuvlari tashkil etilib, ikki davlat kompaniyalari o'rtasida kelishuvlar va shartnomalar imzolandi.

O'.XUDOYBERDIYEV, A.ISROILOV (surat).



ken-gaytirish istiqbollarini muhokama qildi. Eksport salohiyatini mustahkamlash, o'zaro tovar ayirboshlash hajmlarini oshirish va yetkazib berilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish masa-

15-fevralda Urgutda saylov bo'ladi

14-yanvar kuni viloyat hududiy saylov komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Komissiya raisi O.Toshniyozov olib borgan yig'ilishda bir nechta masalalar ko'rildi.

Dastlab, komissiyaning 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasining ijrosi, xalq deputatlari Jomboy, Nurobod, Paxtachi, Payariq, Toyloq, Urgut, Narpay tumanlari Kengashlarining bo'shab qolgan o'rinlariga o'tkazilgan mahalliy Kengashlar deputati saylovi to'g'risida hisobot tinglandi.

Shuningdek, viloyat hududiy saylov komissiyasining 2026-yil uchun ish

rejasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining joriy yil 13-yanvardagi "Ayrim bo'shab qolgan o'rinlarga mahalliy kengashlar deputatlarining saylovini tayinlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 15-fevralda viloyat Kengashiga bo'shab qolgan deputatlik o'ini uchun Urgut tumanidagi 58-Jozmon saylov okrugida saylov o'tkazilishi belgilangan.

Yig'ilishda ushbu okrugda saylovni Saylov kodeksi talablari asosida tashkil etish va o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi 58-Jozmon saylov okrugida bo'shab qolgan o'ringa xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi deputati sayloviga qatnashish uchun siyosiy partiyalardan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, 16-yanvar kuni **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiyasi** viloyat kengashlarining saylovda qatnashishlariga ijozat berish to'g'risida qarorlar qabul qildi.

Elektr energiyasi uchun to'lovingizga cheklov o'rnatildimi?

Maishiy chiqindi muammosi butun dunyoda dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib qoldi. Aholi sonining o'tishi, sanoat va iste'molning jadal rivojlanishi natijasida chiqindilar miqdori yil sayin ko'payib bormoqda. Agar bu muammoga o'z vaqtida yechim topilmasa, atrof-muhit, inson salomatligi va iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

"Toza hudud" davlat muassasasi viloyatimizda chiqindilarni to'plash va olib chiqish faoliyati bilan shug'ullansa-da, so'nggi vaqtlarda shahar va tumanlarda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat qilayotgan korxonalar soni ham ortib boryapti. Mazkur korxona Ekologiya va



iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzurida "Toza hudud" davlat muassasasi sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi. Ayni paytda tashkilotning Bulung'ur, Qo'shrabot, Jomboy, Oqdaryo, Toyloq, Ishtixon, Urgut, Past Darg'om tumanlarida filiallari

tomonidan 509 ta mahalladagi chiqindi tashib chiqarilmoqda.

(Davomi 3-sahifada) >>>

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va xalqimizga murojaatnomasida parlament va deputatlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratib, ularning jamiyat hayotidagi o'rni kuchaytirish zarurligini ta'kidlab keltmoqda. Davlat rahbari deputatlarni xalqning bevosita vakili sifatida ko'radi va ularning ishi aholi turmushi, davlat boshqaruvi sifati hamda islohotlar samarasiga ta'sir qilishini qayd etadi. Prezident fikricha, deputatlik xalq oldidagi mas'uliyatli xizmatdir.

Deputatlik - xalq oldidagi mas'uliyatli xizmat

Deputat faoliyatining asosida inson manfaatlari turishi kerak. Saylovchilarning muammolari, taklif va ehtiyojlarini bilish, ularni parlamentda ko'tarish va amaliy yechimlar taklif qilish deputatning muhim vazifasi. Shu bois davlat rahbari deputatlar joylarda ko'proq bo'lishi, mahalla va hududlardagi real vaziyatni o'z ko'zi bilan ko'rishi, odamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishi zarurligini ta'kidlab keladi. Haqiqiy holatni bilgan deputatgina hayotga yaqin va ishlaydigan qonun tashabbuslari bilan chiqishi mumkin.

Qonun ijodkorligi masalasida ham deputatlar oldiga aniq talablar qo'yilmoqda. Qabul qilinayotgan qonunlar real muammolarni hal etishi va ijrosi ta'minlanishi kerak. Qonunlar faqat qog'ozda qolib ketmasligi, amalda ishlashi lozim. Bu esa deputatlardan chuqur tahlil va mas'uliyatli yondashuvni talab qiladi. Deputatlar qonun loyihalarini formal tarzda qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmasdan, ularning sifati va samarasi uchun javobgar bo'lishi kerak.

Prezident murojaatlarida parlament nazorati masalasiga ham alohida e'tibor beriladi. Ijro hokimiyati ustidan samarali nazorat bo'lmasa, islohotlar kutilgan natijani bermasligi ochiq aytilgan. Shuning uchun deputatlar vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini tahlil qilishi, hisobotlarni chuqur o'rganishi va aniq kamchiliklar bo'yicha savol qo'ya olishi lozim. Deputat ijro hokimiyatiga qaram bo'lmasdan, qonun va xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil pozitsiyaga ega bo'lishi muhim.

Yangi Konstitutsiya va islohotlar sharoitida parlament vakolatlari kengayib borayotgani deputatlar oldidagi mas'uliyatni yanada oshirmoqda. Endi deputatlar faqat qonun qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, davlat siyosatini shakllantirish, jamoatchilik nazoratini ta'minlash va xalq ishonchini oqlashda faol ishtirok etishi lozim.

Jamshid JUMANOV,
xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashi kotibiyati mudiri.

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda bolalarning ovqatdan zaharlanish holatlari haqida xabarlar paydo bo'lyapti. Ko'pincha bunday hodisalar maktab, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchramoqda. Bunga sabab tibbiy madaniyat va ko'nikmalarning yetishmasligidami?

- Bolalarning ovqatdan zaharlanish holati avvallari ham bo'lgan, hozir ham bo'lyapti, lekin ko'paygani yo'q, - deydi viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasida infeksiyalar vrachi Nigina Ismat. - Faqat bunday hodisalar tarqatilmadi. Bugun ijtimoiy tarmoqlar ommalashgani bunday voqealardan xabardorlikni oshirdi. Bolalar ko'pincha ketchup, mayonezli yeguliklardan zaharlanadi. Sabzavotlarimiz ham avvalgidek tabiiy emas, har xil kimyoviy dorilar bilan yetishtirilyapti. Bundan tashqari, qabulimga kelganlarning ba'zilar "Bolamni urishib qo'ying, shokolad va koka-koladan boshqa yegulik yemaydi", deydi. Ota-ona bolaga shu narsalarni sotib olib bermasa, bola qanday qilib bunday mahsulotlarga o'rganib qoladi? Bolalar boshqa zararli mahsulotlarga ham ota-ona sabab o'rganib qolyapti.

TA'LIM DARGOHLARIDA BOLALARGA QANDAY YEGULIKLAR SOTILYAPTI?

Bugungi kunda viloyatdagi 1266 ta umumta'lim maktablarida 784 ta oshxona va "bufet"lar faoliyat olib bormoqda. Ularda deyarli rangli, gazli ichimliklar, ketchup, mayonezli xotdog, hamburger kabi yeguliklar, hatto chipsi, kirieshki singari zararli mahsulotlar sotilmoqda. Xo'sh, nima uchun maktab oshxonalari-da bolalar uchun taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotilyapti, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Sababi, maktablardagi oshxonalar tadbirkorlarga auktsion orqali berilgan. Tadbirkor maktab oshxonasini daromad olish maqsadida olgan. Shuning uchun u bolalarning xohish-istagiga qarab oziq-ovqat mahsulotlari keltirib sotadi.

Bolalar yuqorida nomlari keltirilgan

Bolangiz sog'lom ovqatlanyaptimi?



zararli mahsulotlarni yaxshi ko'radi. Tadbirkor sanitariya qoidalarini, normalari va gigiena normalativlarini bilsa-da, savdosi yurishi uchun taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini keltirib sotaveradi. Nega, ularni hech kim tekshirmaydimi, deyishingiz mumkin. Albatta, maktab va bog'chalar shahar va tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlari tomonidan bir yilda bir marta tekshirib turiladi. Ammo masalaning nozik jihati, tekshiruvdan oldin tadbirkorlar bu haqda xabardor qilinadi. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ularga keng imkoniyatlar berilgan. Shuningdek, istalgan paytda SES xodimlari maktab oshxonasini tekshira olmaydi. Qachonki, ombudsman tomonidan ruxsat berilsa, SES xodimlari maktab oshxonasini tekshirishi mumkin. SES xodimlari ogohlantirish bilan kel-sa-da, maktab oshxonasidagi kamchiliklar bartaraf etilayotgani yo'q. Buni fakt va dalillardan ham bilishimiz mumkin.

MAKTAB OSHXONALARIDA KAMCHILIKLAR BORLIGI ANIQLANDI

2025-yilning 11-oyi davomida SES xodimlari tomonidan 2014 ta obyektda, 1789 tasi reja asosida, 225 tasi rejadan tashqari nazorat o'tkazilgan. Shundan 829 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 1062 ta umumta'lim maktabi, 2 ta Prezident ta'lim muassasalari agentligiga

tegishli ixtisoslashtirilgan maktab, 2 ta IDUM, 7 ta maxsus maktab-internat, 6 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabi, 43 ta professional ta'lim muassasasi, 30 ta musiqa maktabi, 31 ta sport maktablari-da nazorat o'tkazilgan.

Shuni a'chinarliki, tekshirishlar davomida 1710 ta obyektda laboratoriya sinovlari olib borilgan bo'lib, kimyoviy tahlildan 34811 ta namunadan 467 tasida, bakteriologik tahlillardan 16032 tasidan 643 tasida, parazitologiya tahlillaridan 209879 ta namunadan 2555 tasi talabga javob bermagan.

O'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha 1067 ta muassasa mas'ullariga nisbatan 2 milliard 340 million so'm miqdorda jarima chorasi qo'llanilgan. Shundan hozircha 960 tasi, ya'ni 1 milliard 520 million so'mdan ortiqroq miqdori undirilgan. 28 ta muassasa oshxonasining ish faoliyati vaqtincha to'xtatilgan, tibbiy ko'rikdan o'tmagan 551 nafar xodim vaqtincha ishdan chetlatilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i, hududiy bo'limlari va umumta'lim maktablari rahbarlariga 2021-yil 22-iyulda "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalarini, normalari va gigiena normalativlari" bo'yicha topshiriq xatlari yuborilgan. Aniqlik, 38 xil

turdagi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining maktab oshxonasida sotilishini to'xtatish borasida ogohlantirilgan.

Qolaversa, maktab direktorlari taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini maktab oshxonasiga kiritmaslik huquqiga ega. Lekin ayrim direktorlar oshxona va bufetlarga o'z qarindoshlarini joylashtirgani tufayli bu muammoning oldi olinmayapti.

BOLA SOG'LOM OVQATLANISH QOIDASINI BILADIMI?

Bugun bolalarning aksariyati sog'lom ovqatlanish tartibini bilmaydi. Buning uchun avvalo, ota-ona sog'lom ovqatlanish nima ekanini haqida tushuncha bo'lishi lozim. Ba'zida ko'cha-ko'ya yosh bolalarga rangli ichimliklar yoki chipsi kabi qotirilgan zararli mahsulotlarni sotib olib berayotgan ota-onalarga duch kelamiz. Bu, ota-ona sog'lom ovqatlanish haqida tushuncha kamligini bildiradi.

Agar ota-ona bolaga yoshligidan to'g'ri va sog'lom ovqatlanish tartibini o'rgatsa, u kelgusida ko'cha-ko'ya yoki maktab bufetida sotilayotgan zararli mahsulotlarni sotib olmaydi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalarini, normalari va gigiena normalativlarida umumta'lim muassasalarida ruxsat etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari va taomlari ro'yxati keltirilgan. Masalan, go'sht qo'shilgan, mayonez, ketchup va orasiga sabzavotlar solingan non mahsulotlari (gamburjer, chizburger va xot-doglar), sun'iy ta'm, hid beruvchi moddalar, bo'yoqlar, aromatizatorlar qo'shilgan qandolatchilik mahsulotlari, sun'iy konservantlari bor mahsulotlar (kirieshki, xrustiyashki, chipslar), rangli va rangsiz gazlangan ichimliklar kabi 38 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari maktab oshxonalari-da sotilmasligi kerak.

Bolaning sog'lom o'sib-ulg'ayishi uchun avvalo, oilada unga to'g'ri va sog'lom ovqatlanish qoidasi o'rgatilishi, shuningdek, maktab oshxona va bufetlarida taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotilmasligi lozim. Buni har bir maktab direktori va tadbirkor vijdonan tushunsa, tartib-qoidaga amal qilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xurshida ERNAZAROVA yozib oldi.

► Kim qiladi-ya, shuginani-ya?

"Tutzor"dagi muammolarni kim hal qiladi?



Samarqand shahar Tutzor mahallasi Hodi Fayziy ko'chasidagi uylardan birida 25 yildan beri yashab kelaman, yoshim sakson to'rtida.

O'tgan yillar davomida yon-atrofimiz, ko'chalar ilgariydagi yozgari ketdi, qulayliklar yaratildi, eski "Makaronka" (Kurchatova) dan asar ham qolmadi. Ko'chaning ikki tomoni ustaxonalar bilan to'ldi, mahalliy sanoat hududiga aylandi.

Ammo shu ko'chaning yuqorisidagi Hodi Fayziy ko'chasi bo'yicha ayrim mulohazalarim bor. Avvallari ko'cha tosh yo'l edi, bugun asfalt bo'ldi - davlatimizga rahmat! Lekin shu ko'cha va uning atrofida avtomobillar harakati, simyog'ochlar va yangi qurilishlar bilan bog'liq muammolar bor.

Ilgari shu ko'cha boshlanishida "yo'l bir tomonlama" degan belgi turardi. Hozir esa ikki tomonlama qatnov. Ayniqsa, yuk mashinalarining chiqishi va tushishi ham juda xavfli hisoblanadi. Vaholanki, bu ko'cha mahallaning ichki, ko'proq piyodalar yuradigan yo'li. Ko'chada xuddi aerodromdan uchgan samolyotdek o'tadigan mashinalar harakati tartibga olinsa, deymiz.

Mahalladagi simyog'ochlar nechanchi yillarda qo'yilgan, bilmadik. Qurilish qilayotgan kishilar simyog'ochlarni bir-ikki marta ko'chirib, ularga turli-tuman simlarni osib tashlagan. O'tgan yili shu simlar tufayli bir kishi halok bo'lgan edi. Yaqinda elektr va gaz chaqnashidan mahalladoshimizning uyi yonib ketdi. Bunga ham mas'ullar e'tibor qaratlsa, yomon bo'lmasdi.

Qurilishlar masalasi ham eng og'riqli muammomiz. Odatda, mahalla ichidagi qurilishlar qo'ni-qo'shnilarning roziligi bilan, ularga zarar yetkazmagan holda amalga oshirilishi kerak. Ammo bizda bunga ko'pam rioya



etishma-yapti. Masalani, bizning uyimiz yonida qurilgan besh qavatli imorat egalari "oh-voh"larimizga quloq solmasdan, derazalarimizni to'sib, 1,5 metr oraliq tashlashdi, xolos. Qurilish nazorati degan tushuncha qayerda qoldi? Adashmasam, shunday faoliyat olib boradigan inspeksiya bor. Nahotki ular shu katta bino loyihalashtirilib, qurilguncha bundan bexabar bo'lsa?

Xullas, yangi yil boshida shahar hokimligi va munitsipalitet idoralar mahallamizga kelib, shu muammolarni o'rgansa, xalqning dardiga quloq tutsa va bizni o'ylantirayotgan muammolarni hal etib bersa, degan istagimiz bor edi.

Ziyodulla MUQIMOV,
mehnat faxriysi.

"Xavfsiz hudud - xavfsiz mahalla" tamoyili asosida viloyatimizda jinoyatchilikning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni yaratish maqsadida viloyat ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi qo'riqlash xizmati tomonidan tizimli va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-yanvardagi qaroriga muvofiq, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan mahallalarda jinoyatchilikni barvaqt aniqlash, uning oldini olish va vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan hamkorlik mexanizmi yo'lga qo'yildi. Ushbu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla faollari va profilaktika inspektorlarining o'zaro hamkorligi ta'minlanib, mahallalar hududiga kirish-chiqish yo'llari, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga zamonaviy kuzatuv kameralari hamda shaxsni identifikatsiya qiluvchi qurilmalar o'rnatildi.

Barcha tuman va shahar qo'riqlash xizmatining texnik qo'riqlash markazlari xodimlari tomonidan "qizil toifa"ga kiritilgan mahallalar va aholi gavjum joylarda qo'riqlash xizmatining afzalliklari yuzasidan keng tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borildi. Bu tadbirlar natijasida fuqarolar o'z xonadonlari va mol-mulkini qo'riqlash xizmatiga ishonib topshirmoqda.

Fuqarolar murojaatlari asosida aholi xonadonlarini texnik qo'riqlash vosita-

XAVFSIZ MUHIT - FAROVON HAYOT KAFOLATI



lari bilan jihozlash ishlari izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, 2024-yilda qo'riqlanayotgan jismoniy shaxslarga tegishli xonadonlar soni 2 ming 478 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 5 ming 701 taga yetdi. Shu bilan birga, texnik qo'riqlash olingan obyektlar soni 5 ming 86 tadan 12 ming 738 tagacha oshdi.

Shuningdek, 2024-yil iyul oyidan boshlab viloyatdagi ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklari va aholi gavjum joylarda ilk bor "SOS" tashvish tugmalari o'rnatilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunday qurilmalar soni o'tgan yilning 1-yanvarida 186 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 725 taga yetkazildi. Ushbu

tizim dehqon va buyum bozorlari, savdo komplekslari hamda tarixiy obyektlar hududida ham joriy etilib, fuqarolar murojaatlarini tezkor qabul qilish, ehtimoliy huquqbuzarlik va jinoyatlarining oldini olishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, tarixiy obidalar va turizm maskanlarida mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish maqsadida "SOS" tashvish tugmasi o'rnatilgan zamonaviy ustunlar joylashtirildi. Ular kunduzi va tunda ko'rinib turadigan miltillovchi mayoqcha, favqulodda chaqiruv tugmasi va servis funksiyalari bilan jihozlangan. Shuningdek, jamoat avtotransport vositalarida sinov tariqasida 2 ta tash-

vish tugmasi o'rnatildi. Joriy yilda jamoat transporti va tez tibbiy yordam mashinalarining barchasiga tashvish tugmasi o'rnatilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari viloyatdagi 1274 ta umumta'lim maktabining barchasiga, 768 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining 504 tasiga, 37 ta o'rta maxsus ta'lim muassasasining 19 tasiga hamda 15 ta oliy ta'lim muassasasiga tashvish tugmalari o'rnatildi. Bu boradagi ishlar davom etmoqda.

Hududlardagi 293 ta obyekt hamda fuqarolarning kirib chiqish joylariga yuzdan tanib oluvchi FACE ID videokuzatuv moslamasi o'rnatilib, Ichki ishlar vazirligining "Qalqon" axborot tizimiga integratsiya qilindi.

2025-yil davomida qo'riqlanayotgan obyekt va hududlarda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan 2 ming 194 nafar shaxs ushlangan bo'lib, ma'muriy huquqbuzarliklardan olingan moddiy-tovar boyliklarning umumiy miqdori 53 million 894 ming so'mdan ortiqni tashkil etdi. Bundan tashqari, qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan 67 ta jinoyat ochildi va oldi olindi.

Umumta'lim maktablari, kafe-barlar, savdo obyektlari, ko'p qavatli turarjoylarning kirish yo'laklari va boshqa qo'riqlash olingan obyektlarda o'rnatilgan tashvish tugmasi orqali kelib tushgan xabarlar soni 1 ming 721 tani tashkil etadi. Tashvish xabari orqali tezkor harakatlanuvchi guruhlar chaqirilishi natijasida 638 ta jinoyat va huquqbuzarlikning oldi olingan.

Mirzaimom MIRZARAHMEDOV,
viloyat ichki ishlar boshqarmasi
huzuridagi qo'riqlash xizmati
boshlig'i, polkovnik.

Elektr energiyasi uchun to'lovingizga cheklov o'rnatildimi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- Maxsus chiqindi tashuvchi texnika-larimiz imkoniyatidan kelib chiqib, 288 ta mahalla bilan ommaviy shartnomalar tuzilgan, – deydi “Toza hudud” davlat muassasasi boshlig'i Baxtiyor Latipov. – Hozirda 48 mingga yaqin aholiga 145 ta maxsus texnika yordamida xizmat qilyapmiz. Ularning barchasiga GPS onlayn kuzatish uskunolari, joriy yilda esa 130 tasiga kuzatuv kameralari o'rnatildi. Natijada har bir maxsus texnikani kuzatish imkoniyati yaratilib, haydovchilarning rejadan tashqari harakati oldi olindi.

Joriy yilda Urgut, Past Darg'om, Jomboy, Toyloq tumanlariga 5 dona yangi maxsus texnikalar lizing asosida xarid qilinib, moddiy-texnik bazasi kuchaytirildi. Aholi qamrovining oshishi natijasida “Toza makon” tizimiga yana 2073 nafar abonent qo'shilib, ularning soni 50,6 ming nafarga ko'paydi. Biroq ularning barcha aholi punktlarini qamrab olishiga imkoniyati yetmayapti. Filiallarda chiqindi to'plovchi quti va konteynerlar, ishchilar, tashuvchi maxsus mashinalarning yetishmovchiligi bunga xalal beryapti. Bugungi kunda tashkilot bilan o'zaro shartnoma imzolagan mahallalarning barchasini to'liq qamrab olish uchun yana qo'shimcha 80 ta maxsus texnika talab etiladi.

“Toza hudud” davlat muassasasi oldida turgan muammolardan biri tashkilotning soliqlar va majburiy to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaganligidir. Shuningdek, chiqindilarni to'plash poligonlaridan yillar davomida yig'ilib kelgan qarzarlarini ham o'z vaqtida to'lay olishmayapti. Natijada tashkilotning shahar va tumanlardagi filiallariga qarashli chiqindi tashuvchi texnikalar qarzdorlik bartaraf qilinmaguncha Majburiy ijro byurosi tomonidan jarima maydoni-



ga olib qo'yilmoqda. Bu holat esa xizmat ko'rsatish sifatiga, tushum va rejalar bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

- 2026-yilda aholiga chiqindilarni to'plash xizmatini ko'rsatishdagi qamrovni oshirish maqsadida, qo'shimcha 20 ta “Isuzu” rusumli, sig'imi 7 kub bo'lgan maxsus texnikani lizing asosida olishni rejalashtirganmiz, – deydi Baxtiyor Latipov. – Shuningdek, tashkilotimiz bilan ommaviy shartnoma tuzgan mahallalarda joylashgan ko'p qavatli uylar va chiqindi yig'ish maydonchalariga qo'shimcha 200 dona konteyner o'rnatamiz. Natijada abonentlarimiz soni 200 ming nafarga yetadi.

- Yaqinda to'satdan uyimizda elektr energiyasi o'chib qoldi, kechgacha kutsak ham chirog'imiz yonmadi, – deydi bulung'urlik Sherbek Rahmonqulov. – Er-talab gap nimada ekanligini bilish uchun

tuman hududiy elektr ta'minoti bo'limiga bordim. U yerda menga o'xshab elektrga pul to'lolmay yurganlar soni anchagina ekan. Bilsam chiqindidan qarzimiz borligi uchun “aqlli hisoblagich”imiz to'lovni qabul qilmayotgan ekan. Telefonim buzuqligi uchun “Toza hudud” billing dasturidan kelgan ogohlantirishni ko'rmay qolibman. Bir yildan buyon chiqindidan qarzdor bo'lgan ekanmiz.

Yangi tartibga ko'ra, endilikda chiqindidan qarzi bo'lgan fuqarolarning elektr energiyasiga to'lov qilishi cheklab qo'yilgan. Bunday qadam tashlashga qarzdorlar o'z vaqtida to'lov qilmagani sabab bo'lyapti. Viloyatimizda ham shu amaliyot boshlandi. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ Samarqand filiali tomonidan maishiy chiqindidan 2 milliard 414 million so'm qarzi bo'lgan 9791 nafar iste'molchining elektr energiyasiga to'lov qilishiga vaqtinchalik taqiq

qo'yildi. Jumladan, Bulung'ur tumanida 1639 nafar, Jomboy tumanida 2367 nafar, Past Darg'om tumanida 533 nafar iste'molchiga shunday chora ko'rildi. Chiqindidan qarzdorlarga dastlab elektr uchun to'lov qilishni cheklash haqida SMS ogohlantirishlar yuboriladi. Besh kun ichida qarzdorlik bartaraf etilmasa, to'lov qilish cheklanadi.

2025-yilning 1-dekabr holatida aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun tashkilotning debitor qarzdorligi 14,8 milliard so'mni tashkil etgan. Qarzdorligi bo'lgan 29827 nafar abonent ogohlantirilgan. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Adolat” dasturi orqali fuqarolik sudlari orqali 4,3 milliard so'm qarzdorlik undiruvga yo'naltirildi.

Yana bir gap. 2026-yil 1-yanvardan boshlab chiqindi xizmatlari uchun to'lovlar faqat onlayn tarzda amalga oshirilib, to'lovlarni uyma-uy undirish amaliyoti to'xtatildi. Istisno tariqasida, internet aloqasi bo'lmagan, olis hududlarda yashovchilar bank kassalari va «O'zbekiston pochta» orqali to'lov qilsa bo'ladi. Iste'molchi tomonidan qarzdorlik bartaraf etilishi bilanoq vaqtinchalik cheklov yechiladi.

Hozirda “Toza hudud” davlat muassasasi qarzdorlikni undirish maqsadida mahalla va qishloqlarda o'tkazilayotgan sayyor qabullarda, ijtimoiy tarmoqlarda to'lov madaniyatini oshirish borasida turli targ'ibot ishlarini olib bormoqda.

Dilmurod TO'XTAYEV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

20-YANVAR

Xurshid DAVRON - 1952-yilda Samarqand tumanidagi Chordara qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri. “Do'stlik” ordeni sohibi.
Adham HAYITOV – (1951-2020) Urgut tumanida tug'ilgan. Jurnalist, “Shuhrat” medali sohibi.

21-YANVAR

Shuxrat ABDUMALIKOV - 1970-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Teatr rassomi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

27-YANVAR

Islom ZOKIROV – (1928-2000) Samarqand shahrida tug'ilgan. Akusher-ginekolog. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

28-YANVAR

Yusuf ABDULLAYEV – 1948-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan, professor, Samarqand xalqaro texnologiya universiteti rektori.

► Xotira uyg'onsa go'zaldir

Payariqning asl farzandi edi

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan fidoyi insonlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, viloyatimiz sanoati va qishloq xo'jaligi sohasi bilimdoni, mohir tashkilotchi Abdamit Umarov ham shunday insonlardan edi.

Abdamit Umarov 1943-yilda Payariq tumanidagi Navoli qishlog'ida tug'ilgandi. 35-o'rta maktabni bitirgach, Samarqand oziq-ovqat texnikumida tahsil oldi, ilk ish faoliyatini 1960-yilda “Kattaqo'rg'on yog'-moy” kombinatida boshladi. Keyinchalik tuman markaziy omonat kassasida nazoratchi-inspektor bo'lib ishladi. Harbiy xizmatdan qaytgach, Chelak paxta tozalash va qayta ishlash zavodi laboratoriyasi mudiri bo'ldi. Ishdan ajralmagan holda Samarqand davlat universitetida sirtidan o'qidi.

Payariq tuman partiya qo'mitasida ishlagan vaqtlarida tashkilotchi va tashabbuskorligi bilan e'tibor qozondi. Tuman rahbarlari unga ishonch bildirib, Chelak paxta tozalash va qayta ishlash zavodi direktori vazifasiga tayinlashdi.

A.Umarov korxona hududini kengaytirish, yangi binolar qurish, zarur asbob-uskuna va texnikalar olib kelishga e'tibor qaratdi. Uning sa'y-harakati tufayli zavod tez orada viloyatimizdagi eng yirik korxonalaridan biriga aylandi. Yangi rahbar tashabbusi bilan tuman hududida bir nechta paxta qabul qilish punktlari ishga tushdi. Korxona ishchi-xizmatchilari uchun uy-joylar qurildi.

A.Umarov 1983-yilda viloyat partiya qo'mitasi yengil sanoat bo'limi boshlig'i vazifasiga tayinlandi. Bu vazifada yetti yildan ortiq ishlab, hurmatga sazovor bo'ldi.

Abdamit aka 1990-1992-yillarda viloyat ijroiya komitetida ish boshqaruvchi, kotibiyat mudiri, viloyat Paxta sanoat sotish birlashmasi boshlig'i o'rinbosari bo'lib ishladi.



1993-1998-yillarda viloyat hokimining o'rinbosari, iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi boshlig'i vazifalarida ishlagandi. Keyinchalik qator yillar viloyat paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotlari sotish birlashmasi boshlig'i, “Chelak paxta tozalash va qayta ishlash” OAJ raisi bo'ldi.

Abdamit Umarov oilada mehribon ota, sevimli bobo edi. Umr yo'ldoshi Baxmal aya bilan uch o'g'il va bir qizni voyaga yetkazib, uyli-joyli qilishdi. Farzandlari turli sohalarda xalqimizga xizmat qilib kelmoqda.

A.Umarov 2020-yilda 77 yoshida vafot etdi. Ustozning amalga oshmay qolgan orzulari uning farzandlari, 14 nevara va 14 evaralari, shuningdek, u yashab o'tgan Tutzor mahallasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Iskandar TEMIROV,
faxriy jurnalist.
Sunnat MUHAMMEDOV.

Barotali ABDUKARIMOV

Iqtisodchi olimlar orasida munosib o'rni ega bo'lgan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori Barotali Abdukarimov 79 yoshida vafot etdi.

B.Abdukarimov 1947-yil 20-iyunda Qirg'izistonning O'sh viloyatida tug'ilgandi. O'rta maktabni bitirib, 1964-yilda Samarqand kooperativ instituti (hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti)ga o'qishga kirdi. Institutni bitirib, ikki yil Frunze shahridagi kooperativ texnikumining Jalolobod filialida o'qituvchilik qildi. 1970-yilda Samarqandga qaytdi va o'zi tashkil olgan institutda kafedra assistenti sifatida ish boshladi. Lvov savdo iqtisodiyoti instituti aspiranturasida o'qib, bilimni oshirdi. 1976-yilda institut savdo iqtisodiyoti kafedrasida

katta o'qituvchi, keyinchalik dotsent vazifalarida mehnat qildi. Bu davrda talabalarga saboq berish bilan birga ilmiy ish bilan shug'ullanib, iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi bo'ldi.

Olim dastlab institutning sirtqi fakultetiga, 1989-1998-yillarda esa savdo iqtisodiyoti fakultetiga dekanlik qildi. So'ngra 10 yil davomida institutda o'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, 2005-2013-yillarda esa iqtisodiyot kafedrasini mudiri bo'ldi.

Iqtisodiyotimiz rivoji va aholi farovonligini oshirishda beminnat xizmat qilgan domla faoliyati



davomida 600 dan ortiq ilmiy, o'quv-uslubiy ishlarini nashrdan chiqardi. Talabalar uchun 3 ta darslik va o'quv qo'llanma yozdi.

2008-yilda qabul qilingan “Savdo faoliyati to'g'risida”gi hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlarni takomillashtirishda ustozning bir qancha takliflari inobatga olindi. Professorning iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi va tarmoqlar iqtisodiyoti mutaxassisligi bo'yicha tayyorlagan davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonlariga tatbiq etildi.

Professor B.Abdukarimov oliy ta'lim sohasida erishgan yutuqlari uchun davlatimizning bir qator medal va ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Iqtisodiyot sohasi bilimdoni, jonkuyar inson Barotali Abdukarimovning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etamiz, uning xotirasi qalbmizda saqlanadi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti jamoasi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Abduraxmanov Abdurasul Sultanovichga (2024-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Xomidova Matluba Abduxamidovna (2020-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Raxmanova Miyasarga (2018-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Nurmatov Mumin Oblokulovichga (2024-

yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasida marhum Sobirova Xosmanga (2025-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonova Lola Vahobovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rafikov Damir Gabidulxakovichga (2024-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rafikova Rano Gabidulxakovna (2018-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Razakova Balchuchukga (2020-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi “XUDOYKULOVIK IKROM DALASI” fermer xo'jaligining (STIR: 305165075) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Majidova Madina Abdukarimovnaga tegishli Samarqand tumani “Rajabamin” MFY, Vatanparvar ko'chasi, 122-uy-joyning (kadastr raqami 14:12:06:01:12:1063) kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari mehnat huquq inspektori Ulug'bek G'aniyevga qaynotasi

Abdunaim MELIBOYEVning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektorati, muhandislik fizikasi instituti va optika va spektroskopiya kafedrasida jamoasi universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Hakim Xushvaqtovga onasi

Qo'ysintosh HASANOVAning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



O'tgan asrning 70-yillarida Samarqand adabiy muhiti, xususan, vohaning nazm maydoni peshqadamlaridan bo'lgan shoir va jurnalist Sur'at Oripov 1937-yil 18-yanvarda Oqdaryo tumanidagi Yangiqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan.

Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgach, viloyat «Lenin yo'li» (hozirgi «Zarafshon») gazetasida mehnat qildi.

Sur'at Oripovda ijodiy jo'shqinlikdan tashqari, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi ajoyib fazilatlar ham bor edi. Afsuski, ustoz ijodkor 1986-yilda vafot etdi. Undan faqat Rauf Parfi bilan hamkorlikda chiqargan «Subhidam» to'plamigina yodgor qoldi.

Chop etishga tayyorlagan «Ranglar va ohanglar», «Chanqovuz» deb nomlangan kitoblari shoir o'limidan keyin chop etildi. 2020-yilda esa «Zarafshon» gazetasi kutubxonasidan «Shoir yuragi» deb nomlangan kitobi chop etildi.

Quyida shoirning ayrim she'rlaridan bahramand bo'lasiz.

“Umrin bo'yi hamroh bo'ldi do'st hamda raqib”



BULBULGA

Balki ushlagandir dilingda armon,
Balki o'zgarandir senda tushuncha,
Bobonglar umrbod chekishdi afg'on,
Bugun sen har uyda mehmon, bulbulcha.

Bolalar chug'urlab, sepishar don-dun,
Qafasda na gulzor, na biror g'uncha.
Ehtimol gul nima bilmaysan bugun,
Hajrida yonmaysan endi, bulbulcha.

Ishq degan azobdir turgan-bitgani,
Bobong undan vafo ko'rmadi qilcha.
Seni bu g'avg'odan xalos etgani
Odamzod yordamga keldi, bulbulcha.

«Cha-qchaq» qil, bu yerda yo'q o'zga yumush,
Zarra g'am yemasin nozik ko'ngilchang.
Qafasga solishga arzimas boyqush,
Faqat sen munosib unga, bulbulcha.

NEGA SEN KELMADING?

Har kun derazadan men boqdim xomush,
Qishning sovuq yeli esganda g'iz-g'iz.
Xayolim shu yeldek bo'ldi faromush,
Seni kutaverib, ey umri aziz.

Mushaklarim qaqshab, sanchganda yurak,
Menga dalda berdi har ahli ta'miz.
Lekin faqat seni kutdim jonsarak,
Kutdim, sen kelmading, ey umri aziz.

Bir bor kirib kelsang, eshikdan kulib,
Kasalligim tezroq cho'karmidi tiz.
Yo'lingga ko'z tikdim «o'lib, tirilib»,
Ammo sen kelmading, ey umri aziz.

Bemor ko'rish uchun kelar odamlar,
O'zimni hech qachon qo'yishmas yolg'iz.
Yana eshitildi tanish qadamlar...
Faqat sen kelmading, ey umri aziz.

Yonimdan jilmaydi hushyor tabiblar,
Davolovchi vrach – bir yuzi qirmiz.
Ko'nglimni ko'tarar dilkash habiblar,
Yolg'iz sen kelmading, ey umri aziz.

Xonamga taraldi bir ajoyib bo'y,
Bahor bilan qayta yuz ko'rishdik biz.
Menga orom bermas faqat bitta o'y:
Nega sen kelmading, ey umri aziz?

QALB VA SHE'R

Yurtim – to'kin-sochin dasturxon,
Qalbm – ilhom qaynagan qumg'on.
Sevgim – toshqin, jo'shqin shalola,
She'rim – yangi tug'ilgan bola.
Daftar – uning oppoq yo'rgagi,
Aqlim – uning jajji yuragi!

TINCH

Go'daklikdan to'lqinlarga
tushgandir ishqim,
Bo'ronlarga dosh bergandir
umrim kemasi.

Kim oromni istar ekan,
keladi g'ashim,
Qulog'imga kuydek yoqar
kurashlar sasi.

Umrin bo'yi hamroh bo'ldi
do'st hamda raqib,
Hayot – shaxmat, har
qadamda duch kelar g'ayri.
Mayli agar soya kabi etsa
ham ta'qib,
Hayot, meni raqibimdan
tushirma ayri.

Sur'at Oripov.

YETTI O'LCHAB BIR KESMASANG...

Xalq maqoli bahonasida qarz oldi – berdisida adashayotganlar xususida

Inson borki, hamisha ko'makka muhtoj bo'ladi. Ayniqsa, daromadimni ko'paytiraman, hayotimni yaxshilayman, degan odam tadbirkorlik qiladi. Tadbirkorlik, tabiiyki, mablag' talab qiladi. Ana shunday paytda har bir kishi yo bankdan yoki do'st-yordan qarz olib turadi. Ishni bitirgach, kelishuvga muvofiq omonatni egasiga qaytaradi. Bu – hayotimizda tez-tez uchraydigan holat. Lekin...



Akbarjon (ism, shariflar va joy nomlari shartli) o'ziga murojaat qilgan ikki kishiga qarz beradi, foizini ham kelishib olishadi. Bunday qarasangiz, hammasi risoladagiday, faqat...

O'shanda ish ham yomon ketmagan. Qarz olgan ikki shaxs bir-biri bilan uncha yaqin tanish emas, tadbirkorlik tufayli muloqotda bo'lishgan, xolos. Shunday bo'lsa-da, ular avvalida ishni yo'lga qo'yib, qarzni muayyan qismini topshirgandek bo'lishdi. Biroq ko'p o'tmay, omonat olganlardan birining bozori kasod bo'ldi. Aniqlirog'i, hisob-kitobda adashib, pulsiz qoldi. Bunisi ham yetmagandek, boshqalar bilan oldi-berdida ham kamchiligi chiqdi. Natijada qarzlarni to'lay olmasligi sababli undiruv mol-mulkiga qaratildi.

Aslida, bizga shikoyat qilgan kishining hangomalari shu paytdan boshlandi.

To'g'ri-da, qarz bergan odam omonatni foizi bilan qaytarishni so'raydi. Qahramonimiz esa aybni sherigiga tashlaydi, omonatni qaytarmaslik yo'llarini qidiradi. Qarz berganga farqi nima – «oldingmi, qaytar, sherigining holati bilan ishim yo'q, birgamisan, bir kemada edingmi, demak, to'liq javobgar-san!».

Endi qahramonimiz turli idoralarga o'zini jabrdiyda qilib ko'rsatishga harakat qildi. Sabab o'sha-o'sha – «Menga sherigim pand berdi, qarz bergan odam mendan noto'g'ri talab qilyapti!». Ayniqsa, o'zining mulkiga ham qaror chiqarishganida u dod solishdan uyalmasdi. Hali hokimiyatga, hali prokuraturaga, hali mahallaga yozaverdi. U endi «Mening arizalarimni o'z vaqtida ko'rishmayapti, menga noto'g'ri munosabatda bo'lishyapti, ularga chora ko'rishlaringizni so'rayman» mazmunidagi arizalar yozishga tushdi.

To'g'ri, tuman mahallalar uyushmasi rahbarlarida ham mas'uliyatsizlik bo'lgan. Shikoyatchining maktubiga «Biz fuqarolar o'rtasidagi oldi-berdi masalasini ko'rib chiqishga vakolatli emasmiz» degan mazmunda bir enlik xat yozishsa, olam guliston edi.

Xalqimizda «Mol achchig'i – jon achchig'i», degan naql bejiz aytilmagan. Qahramonimiz birovdan olgan omonatini qaytarmaslik uchun qo'ldan kelgan ishlarni qilib ko'rdi. Ammo qonun oldida baribir hech

narsa qila olmadi. Hatto unga «Qarz olishda, sherik tanlashda puxta ish tutmaganligingiz sizning aybingiz emasmi?» deya savol berishganda ham turli bahonalar bilan o'zini oqlashga urindi.

Albatta, qarz oldi-berdisi aholi o'rtasida bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Faqat u halollikni yoqtiradi. Nopok niyat aralashganda olgan qarzi buyurmaydi. Shuning uchun har bir ish avvalida maqolda aytilganidek, yetti o'lchab bir kesmoq zarur. Aynan ana shu naqlga amal qilmaganligimiz tufayli bugungi kunda odamlar (hatto yaqin qarindoshlar) o'rtasidagi oldi-berdilarda yuzaga kelgan tushunmovchilik va nizolar sudlarda ko'rib chiqilmoqda.

Yozuvchi Tohir Malik qaydlarining birida «Qarz oldi-berdisiga doir mashmashalarning kelib chiqish sababini johillikdan qidirish kerak. Agar kishida ilm bo'lsa va bu ilmiga amal qilsa yoki ilm olishga intiluvchilardan bo'lsa, to'g'ri yo'ldan yuradi va boshi g'avg'olar do'liga uchramaydi», degan gap bor. Bu gap bejiz aytilmagan. Istak tufayli hech qanday rejasiz, puxta o'ylamasdan biror yumushga qo'l urish, ayniqsa, qarz olish tashvishdan boshqa narsa keltirmaydi.

Qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik Fuqarolik kodeksining 109-moddasida nazarda tutilgan oqibat-larga olib keladi. Boshqacha aytganda, bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligini anglatmaydi. Biroq nizo kelib chiqqan taqdirda, taraflarni bitimning tuzilgani, mazmuni yoki bajarilganini guvohlarning ko'rsatmalari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi.

Hayotda negadir qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham qarz oldi-berdisini notarial rasmiylashtirishga harakat qilmaydi. Bu ehtimol, ularning notarial idoraga borish, qarz shartnomasini rasmiylashtirish uchun vaqt sarflagisi kelmagani bilan izohlanar.

Har qanday holatda ham insonning xohishi uning imkoniyatiga mos bo'lishi kerak. Buni bida «Ko'rpangga qarab oyoq uzat», deb izohlashadi. Shunday ekan, har bir harakatimiz qonun asosida raqamlashayotgan, ko'rinib turgan texnologiya zamonida og'zaki kelishuvlar, ayniqsa, pul masalasida turli firibgarliklar endi ish bermaydi. Pushaymon bo'lmalikning yo'li bitta – omonatga xiyonat qilmang, buni Xudo ham kechirmaydi!

O'.SAYDINOV.

Tahririyat vijdoni edi

Ustoz jurnalist Adham Hayitovni eslab

Taqdir hammaga ham havas degan ajoyib tuyg'uni bergan. Jamoada ishlash jarayonida sen ana shunday havas qilguli odamlardan ibrat olasan. Ularning fazilatini, tutumlarini o'z hayotingda qo'llashga intilasan.

Adham Hayitov men uchun ana shunday kishilardan biri edi. Bino-barin, u kishining tahririyat ostonasini endi hatlab o'tgan yoshlarga «Egningni (ko'kraging ma'nosida) ko'tarib yur, hech kimga mute bo'lma», degan gaplarini safdoshlarimning ko'pchiligi yaxshi bilishadi.

Ha, ustoz ko'p yil ishlaganligi uchungina emas, balki yaxshi xislatlari uchun ham jamoada tadbiryachiga o'xshab qolgandi.

Kunlarning birida huzuriga kirib, qimtinib gap boshladim, to'g'risi, ozgina qarz so'rash uchun uning nimaga kerakligini ayta boshladim. U kishi esa «O' bola, bir to'xtab ol», deb gapimni bo'ldi. Keyin dildagini aytdi.

- Mabodo qarz so'ramoqchi bo'lsang, dardingni doston qilma. Chunki agar berishni istasa, imkoniyati yetsa, shunday ham beradi. Mabodo bermaydigan bo'lsa, unga diydoyongni aytganing qoladi.



To'g'risi, o'shanda muammolarimni eshitmadi, lekin pul topib berdi. Yashirmayman, bunday holatlar boshqa hamkasblarim bilan ham bo'lib o'tgan. Umuman, Adham aka huzuriga maslahat yoki muammosi bilan kirgan birorta hamkasbimizni e'tiborsiz qoldirmasdi. Buning ustiga har birimizning qayerdan va qanday "nafas" olayotganligimizni ham bilib turardi. Shu sababli xonasiga kirsak, doimo bir piyola choy va tarelkadan arimaydigan shirinliklardan nasibamizni olib, xursand bo'lib chiqib ketar-

dik. Jamoamizdagi ayollar ham ustozning e'tibori-dan, nazaridan, kerak bo'lsa, nazoratidan ham chetda qolmasdi, mehribonligidan bahramand bo'lardi.

Adham akaning ibratli tomoni ko'p edi: u kishining ko'pchilik oldida jahl qilganini, soch-soqoli o'sib ketganini, kiyimlari g'ijim bo'lganini hech kim ko'rmagan. Kamchiligimizni ham yuzimizga shunaqa chiroyli qilib aytardiki, ko'nglimiz qolmasdi. Boshqacha aytganda, kayvoni inson edi. Mabodo chetdan biror kishi jamoamiz a'zolariga ortiqcha gap-so'z qiladigan bo'lsa, bizni himoya qilishdan tortinmasdi.

Adham Hayitov hayot bo'lganida 75 yoshga to'lardi. Afsuski, bugun oramizda yo'q. Lekin hamkasblarimiz, u kishini bilganlar, taniganlar, mehridan bahramand bo'lganlar ana shunday kunda ustozning nomini xuddi men kabi dillarida yod etmoqda.

Yoqubjon MARQAYEV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 798 nusxada chop etildi. Buyurtma 21. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

